

**SCIENCE  
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari

Son 8 Jild 4

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 8 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирор Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуроевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;  
Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;  
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;  
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Бегамова Насиба Холмурзаевна</i>	
МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА АГРАР СОҲА ХОДИМЛАРИНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РОЛИ (ЎЗБЕКИСТОН ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАРИ МИСОЛИДА) .....	11-19
<i>Насиратдинов Сапар Жеткербай-улы</i>	
ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРДА ФОТОГРАФИЯНИНГ ЎРНИ .....	20-25
<i>Нарманов Феруз Асфандиёрович</i>	
ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ ҲАЁТИ ВА ФАОЛИЯТИНИНГ ҮҚИТИЛИШИ .....	26-30
<i>Rustamov Ilxomidin</i>	
“O’ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASI – XALQ STRATEGIYASI (YANGI O’ZBEKISTON TARIXI) .....	31-34
<i>Normo’mnov Aziz</i>	
О’ZBEKİSTONLIK SPORTCHILARINING PARAOLIMPIYAMUSOBAQALARIDAGI ISHTIROKI .....	35-39
<i>Turdiboyeva Gulmira</i>	
VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGIGA QARSHI KURASH BO’YICHA TARG’IBOTLAR SAMARASI .....	40-44
<i>Xamidova Shoira Rasulovna</i>	
PARASPORT TURLARI VA ULARNING QONUNIYATLARI .....	45-51
<i>Ахмедов Жасурбек Зокиржонович</i>	
МАДАНИЯТШУНОСЛИК ВА НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА .....	52-54

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Raximov To’xtabek Jumaboyevich</i>	
KICHIK BIZNES KORXONALARINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI .....	55-60
<i>Allaberganov Xushnud Allamberganovich</i>	
TASHQI SAVDO SALOHIYATINING MINTAQА IQTISODIYOTIDA TUTGAN O’RNI .....	61-68
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i>	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ КОРИДОРЫ: СИНЕРГЕТИЧЕСКАЯ ВЫГОДА И ПОИСК РЕШЕНИЯ НЕПРОСТЫХ ЗАДАЧ .....	69-81
<i>Baqoeva Dilfuzा</i>	
SANOAT KORXONALARIDA SOTUV TIZIMINING OLIB BORILISHI, MOHIYATI VA YO’NALISHLARI .....	82-86
<i>Adilov Mirkomil Miralimovich</i>	
TIJORAT BANKLARI KREDIT QO’YILMALARINING MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	87-93

*Donayev Sheroli Burxonovich*

DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RIVOJLANTIRISH ASCENT

STRATEGIYASINING AHAMIYATI ..... 94-101

*Kaxarov Jasur Abulkosimovich*

ГАСТРОНОМИЯ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ

МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ..... 102-109

*Rahmonov Shukhrat Shavkatovich*

ТУРИСТИК МАҲСУЛОТ ДИВЕРСИФИКАЦИЯСИННИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ ..... 110-117

*Sherov Alisher Bakberganovich*

OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI ..... 118-129

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna*

МАHMUDXO'JA BEHBUDIY MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI VA ULARNING IJTIMOIY-

AXLOQIY MUNOSABATLARDAGI KONSTRUKTIV MOHIYATI ..... 130-135

*Muhamedov Asror*

G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR ..... 136-145

*Aripova Zulfiyaxon Salijanovna*

HOZIRGI ZAMONDA ETIKA VA ESTETIKANI O'QITISHNING AMALIYIJTIMOIY

AHAMIYATI ..... 146-151

*Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich*

INSONNING TABIATGA NOOSFERAVIY MUNOSABATINI YUKSALTIRISH

ZARURIYATI ..... 152-156

*Xolmatov Uchqunjon Xamidullayevich*

AXBORIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY TAHDIDLAR SHAROITIDA MILLATLARARO TOTUVLIK

VA HAMJIXATLIKNI TA'MINLASHNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY VAZIFALARI ..... 157-162

*Шоназаров Жамшид Шухратович*

ЖАДИДЛАР ФОЯЛАРИ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ БИЛАН ҲАМОҲАНГ ..... 163-168

*Xo'janova Tamara Jo'raevna*

YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI AXBOROT URUSHI DAVRIDA MAFKURAVIY

TAJOVUZLARDAN ASRASH OMILLARI ..... 169-174

*Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li*

MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR DIALEKTIKASIGA MADANIY HODISALAR

SIFATIDA QARASH ..... 175-179

*Muxtorova Tutixon*

GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA FALSAFIY YONDASHUVLARNING O'ZIGA

XOS JIHATLARI ..... 180-186

*Rahmonova Mavluda Abdusamadovna*

ABDURAUF FITRATNING "OILA" ASARIDA JAMIYAT MA'NAVIY-AXLOQIY RIVOJIGA DOIR

QARASHLARI TAHLILI ..... 187-194

*Pirnazarov Nurnazar*

- TANA, RUX VA MA'NAVIYATNING INSON BORLIG'IDAGI AKS ETISHINING  
FALSAFIY TAHЛИLI ..... 195-201

*Ismailov Dilshod Baxriddinovich*

- DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING  
MA'NAVIY-AXLOQIY SEGMENTI: KOMPARATIV YONDASHUV ..... 202-209

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

*Yuldasheva Shaxnoza Azimboyevna*

- RAY BREDBERI VA ISAJON SULTON ASARLARIDA MA'RIFATPARVARLIK MOTIVLARI  
TALQINI ..... 210-216

*Bozorbekov Ahmadbek*

- O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA TEXNIK, ZAMONAVIY LOGISTIKA SOHASIDAGI  
TERMINLARNING YASHALISH MODELLARI VA PARADIGMATIKASI ..... 217-230

*Xamrayev Fozilbek Yo'lidoshevich*

- ZAMONAVIY O'ZLASHMALARNI MILLIYLASHTIRISHDA O'ZBEK TILINING TARIXIY ZAXIRA  
MANBALARIDAN FOYDALANISH ..... 231-236

*O'tebaeva Dilbar*

- TURKIY TILLARGA UMUMIY BO'LGAN EKOLOGIK ATAMALAR ..... 237-242

*Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna*

- EPIK KLISHELAR HAMDA ULARNING INGLIZ VA NEMIS TILLARIDAGI TALQINI  
("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) ..... 243-247

*Kadirova Zaynab Bakoyevna*

- INGLIZ TILIDAGI REKLAMANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI ..... 248-252

*Allaberganova Nilufar Matnazar qizi*

- QOFIYA ASOSLARIDAGI MATNLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI ..... 253-256

*Nabiyeva Rushana Jamol qizi*

- OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NOMLARI LEKSIK-SEMANTIK GURUHINING MA'NOVIY  
GURUHLARI VA ULARDA YANGI O'ZLASHMALARNING ISHTIROKI HAQIDA ..... 257-262

*To'rayeva Iroda Sheramatovna*

- FOLKLORIZMLAR TIZIMIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLARNING O'RNI VA  
SPETSIFIKASI ..... 263-268

*Qodirova Munisa Erkinjon qizi*

- BADIY MATNDA QO'LLANILGAN SAN'ATGA OID TERMINLARNING LEKSIK TIPOLOGIYASI  
(INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) ..... 269-272

*G'aniyeva Nozanin G'ayratovna*

- MARKAZIY OSIYODA JADID AYOLLARINING PATRIARXAL TUZILMALAR VA  
MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI CHIDAMLILIGI VA QARSHILIGI ..... 273-277

*Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna*

- TURKIY ADABIYOTDA "IBROHIMI ADHAM" QISSALARI TAHЛИLI ..... 278-284

*Eshniyazova Maysara Beknazarovna*

- ALISHER NAVOIYNING "ARBA'IN" ASARIDAGI HADISLAR BAYONIDA G'OYAVIY-BADIY  
IFODA MUKAMMALLIGI ..... 285-292

*Raxmonova Dildora Mirzakarimovna*

- O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA OVRUPO MADANIYATI TALQINI ..... 293-298

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

<i>Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna</i>	
MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HUQUQIY TIZIMLARIDA KODEKSLASHTIRISH	
JARAYONINING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI .....	299-306
<i>Узакова Гўзал Шариповна</i>	
ШАҲАРЛАР ВА БОШҚА АҲОЛИ ПУНКТЛАРИДА АТРОФ МУҲИТНИ МУҲОФАЗА	
ҚИЛИШНИНГ ЭКОЛОГИК-ХУҚУҚИЙ ТАЛАБЛАРИ .....	307-325
<i>Пулатова Нодирахон Собиржоновна</i>	
ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ УСТРАНЕНИЯ СУДЕБНЫХ ОШИБОК В ОБЕСПЕЧЕНИИ	
ПРАВ ЧЕЛОВЕКА .....	326-332
<i>Nizamatdinov Kayrat Keunimjaevich</i>	
MOBIL ALOQA XIZMATI KO'RSATISHDA MILLIY ALOQA OPERATORLARINING FAOLIYATINI	
HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	333-341
<i>Абдурахманова Нодирахон</i>	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В	
ОНЛАЙН АРБИТРАЖАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ .....	342-345
<i>Bokiyev Jahongir Nurmatjon o'g'li</i>	
TA'LIM OLISH HUQUQINING GENEZISI HAMDA UNING YURIDIK TABIATI .....	346-356
<i>Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li</i>	
SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQINI TA'MINLASH MASALALARI .....	357-368
<i>Утапов Фурқат</i>	
ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ТОВАР БЕЛГИСИНИНГ ХУҚУҚИЙ	
МАҚОМИ .....	369-374
<i>Dilboboyev Nozimbek Shavkat o'g'li</i>	
XALQARO VA MILLIY DARAJADA INVESTITYA QONUNCHILIGINING RIVOJLANISH	
TENDENSIYASI .....	375-381
<i>Назарова Марҳабо</i>	
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И РАЗВИТИЕ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В	
УЗБЕКИСТАНЕ .....	382-386
<i>Абулхайров Рустамхон Ибодуллаевич</i>	
ПОРТЛАШ СОДИР БЎЛГАН ЖОЙНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎТКАЗИШ	
МАСАЛАЛАРИ .....	387-400
<i>Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи</i>	
ВОПРОСЫ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ БЫВШИХ ОСУЖДЕННЫХ В НЕКОТОРЫХ	
МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТАХ.....	401-406
<i>Abdikhakimov Islombok</i>	
LEGAL RELATIONS AND STAKEHOLDERS IN QUANTUM TECHNOLOGIES REGULATION: A	
COMPREHENSIVE ANALYSIS OF GOVERNANCE FRAMEWORKS .....	407-412

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

<i>Djabbarova Nilufar Baxtiyarovna</i>	
TALABA-QIZLARDA LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FALSAFIYPEDAGOGIK	
YONDASHUVLARNING ROLI .....	413-417

<i>Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich</i>	
BO'LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI ADABIY ASARLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA DEBYUT MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI .....	418-423
<i>Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna</i>	
HOFIZ XORAZMIY DIDAKTIK QARASHLARINI O'RGANISHNING HOZIRGI HOLATI .....	424-429
<i>Ismoilova Shodiyaxon Xusanboy qizi</i>	
NEMIS TILIDAN KEYIN INGLIZ TILI O'RGANISH JARAYONIDA FONETIK INTERFERENSIYANI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR .....	430-435
<i>Salimov Ma'ruf Eshdovlat o'g'li</i>	
O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	436-439
<i>Палванова Умида Бахрамовна, Тургунов Собитхон Таушулатович, Якубова Азада Ботировна</i>	
ОРГАНИЗАЦИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ОБУЧЕНИЕМ СТУДЕНТОВ НАВЫКАМ ОКАЗАНИЯ ПЕРВОЙ ПОМОЩИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА .....	440-444
<i>Rasulova Fotima Farxotovna</i>	
O'QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA YO'NALTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY YO'NALISHLARINING ILMIY TAHLILI.....	445-450
<i>Saidxo'jayev Muhammadxo'ja Ma'rufxo'ja o'g'li</i>	
YOSHLARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYALASHDA IJTIMOIY - PEDAGOGIK OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	451-456
<i>Utepbergenov Aydos Janabayevich</i>	
SAHNA NUTQI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	457-461
<i>Nozima Muqimovna Hamdamova</i>	
MAJBURIY FANLARDAN TALABLARNING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLARIDAN FOYDALANISH .....	462-467

**Received:** 30 July 2024

**Accepted:** 5 August 2024

**Published:** 15 August 2024

*Article / Original Paper*

## **THE ROLE OF THE FOREIGN TRADE AUTHORITY IN THE REGIONAL ECONOMY**

**Allaberganov Khushnud Allamberganovich,**  
Independent researcher of Urganch State University

**Abstract.** This article highlights the need for foreign trade in economic sectors and the role of foreign trade potential in the regional economy.

**Key words.** Trade, export, import, foreign trade, foreign trade policy.

## **TASHQI SAVDO SALOHIYATINING MINTAQAs Iqtisodiyotida TUTGAN O'RNI**

**Allaberganov Xushnud Allamberganovich,**  
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada iqtisodiyot tarmoqlarida tashqi savdoning zaruriyati va tashqi savdo salohiyatining mintaqas iqtisodiyotida tutgan o'rni yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar.** Savdo, eksport, import, tashqi savdo, tashqi savdo siyosati.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I8Y2024N10>

**Kirish.** Davlat tomonidan eksport salohiyatini rivojlantirish orqali tashqi savdo imkoniyatlari kengaytiriladi. Bu jarayonlar o'ziga xos xususiyatlarga va vazifalar ko'lamiga ega. Hozirgi beqaror global sharoitda, resurslar uchun raqobat kuchaygan, ishlab chiqarish globallashgan va ichki iqtisodiy muammolar ko'paygan bir paytda, savdo masalalarini chuqur o'rganish, qo'llaniladigan mexanizmlarni tushunish hamda davlatning eksport salohiyatini oqilona shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday mamlakatda iqtisodiy tizimning asosiy muammosi bozor mexanizmlari va davlatning xalqaro savdodagi ishtiroki o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashdir. Iqtisodiy tizim va uning tarmoqlari faoliyati jamiyatdagi mavjud munosabatlarga bog'liq. Xalqaro hamkorlar bilan qulay savdo muhitini yaratish mamlakatning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish va korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish uchun zarur. Globalashuv sharoitida milliy iqtisodiyotning rivojlanishi tovar va xizmatlar almashinuviziz imkonsiz. Shu bois, eksport salohiyatini oshirish va fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish samaradorligini oshirish tashqi savdoda o'z aksini topishi lozim.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada tadqiqotning tahlil, sintez, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, induktiv, deduktiv, anketa-so'rovi va abstrakt fikrlash kabi usullardan foydalanilgan.

Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda tashqi savdo tarmog'i muhim o'rinni egallaydi. Tashqi savdo xalqaro iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Tashqi savdo har qanday davlat uchun iqtisodiy rivojlanish yo'li sifatida zarur va noyob resurslardan samarali foydalanishni taqozo qiladi. Bunday munosabatlar o'zaro manfaatli bo'lganligi sababli ular turli davlatlar o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Bu borada jahon hamjamiyatida rivojlangan yetakchi mamlakatlar bilan aloqalar o'rnatalib, kundan kunga tobora rivojlantirib bormoqda. Mazkur sharoitda mamlakatning tashqi iqtisodiy salohiyati tabiiy resurslarning mavjudligi, ishlab chiqarish va ilmiy-texnik potentsialning barpo etilishi, infratuzilma, ijtimoiy soha, mahsulot va xizmatlarning mamlakat tashqarisiga eksport qilinishi yoki chet el fuqarolari, firma va tashkilotlar, jumladan, mamlakat ichidagi xorijiy korxonalar va qo'shma korxonalarga sotilishi bilan belgilanadi [1]. Bu esa bevosita tashqi savdoni amalga oshirish imkonini belgilaydi.

Mintaqaviy tashqi savdo faoliyatini davlatning tashqi savdo siyosati orqali boshqariladi. Bu siyosat davlat iqtisodiy siyosatining muhim qismi hisoblanib, iqtisodiy va ma'muriy vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bular qatoriga soliqlar, subsidiyalar, import va eksportni bevosita cheklash, kreditlash kabi usullar kiradi. Tashqi savdo siyosati davlat tomonidan qonunchilik asosida belgilangan qoidalar orqali tartibga solinadi. Bu qoidalarga mamlakat rezidentlari (eksport va import qiluvchilar) hamda ular bilan hamkorlik qilayotgan chet el kompaniyalari amal qilishi shart. Tashqi savdo siyosatining turli, ba'zan qarama-qarshi yo'nalishlari mavjud. Bu yo'nalishlar tarixan kapitalizmdan oldingi davrlardan shakllanib, tashqi savdo hajmi va xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi bilan bog'liq holda o'zgarib borgan.

Umuman olganda, tashqi savdo siyosati quyidagi maqsadlarga qaratilgan chora-tadbirlar majmuuni o'z ichiga oladi:

- Ichki bozorni himoya qilish
- Tashqi savdo hajmining o'sishini rag'batlantirish
- Savdo tarkibi yoki tovar oqimlari yo'nalishini o'zgartirish

Bu siyosat orqali davlat tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali boshqarish va milliy manfaatlarni himoya qilishga intiladi.

Zamonaviy tendensiyalar shuni ko'rsatmoqdaki, mintaqada tashqi savdo siyosati umumiqtisodiy siyosatning soliqlar, subsidiyalar, valyuta nazorati, import yoki eksportni to'g'ridan-to'g'ri cheklashlar orqali tartibga solishni o'z ichiga olgan nisbatan mustaqil yo'nalishi hisoblanadi [2].

Tashqi savdo siyosatining strategik maqsadi ijobiy ichki iqtisodiy jarayonlarni rag'batlantirishdan iborat bo'ladi. Shunga asosan, tashqi savdo siyosatining ikkita mumkin bo'lgan quyidagi strategik yo'nalishi mavjud bo'ladi [3]:

- proteksionizm;
- erkin savdo siyosati.

Proteksionistik siyosat ichki iqtisodiyotni tashqi raqobatdan himoya qilishga qaratilgan. U bozor kuchlarining erkin faoliyat yuritishi kam rivojlangan mamlakatlar uchun noqulay bo'lishi, kuchliroq davlatlar tomonidan cheklanmagan raqobat esa mamlakat uchun samarasiz bo'lgan iqtisodiy tuzilmaning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Proteksionizm import qilinadigan tovarlarga yuqori bojaxona to'lovlarining joriy etilishi bilan tavsiflanadi. Importni mahalliy mahsulotlar bilan almashtirish istagi hamda tashqi savdo va u bilan bog'liq

operatsiyalarni taqiqlash va cheklovlarini joriy etishshular jumlasidandir. Bular bevosita tashqi savdoni amalga oshirishga imkon beradi.

Sof shaklda proteksionizm va erkin savdo amalda yuzaga kelmaydi. Ammo, jamiyat tarixiy rivojlanishi bosqichlari tashqi savdo siyosatining turli tizimlariga moyillik bilan tavsiflanadi.

Erkin savdo əca davlat tashqi savdoga bevosita ta'sir qilishdan asosiy tartibga soluvchi rolini bozorga qoldiradigan siyosat hisoblanadi.

Zamonaviy mintaqaviy sharoitda davlatlarning tashqi savdo siyosati mos sharoitga qarab optimallashtiriladi. Tashqi savdo siyosati soliqlar, subsidiyalar va import va eksportni to'g'ridan-to'g'ri cheklash orqali tashqi savdoga ta'sir ko'rsatadigan davlatning iqtisodiy siyosatidir [4].

Tashqi savdo zamonaviy globallashgan dunyoda har qanday mamlakatning iqtisodiy farovonligining ustunlaridan biridir [5]. Tashqi savdo xaridor va sotuvchi o'rtafigi oddiy munosabatlarni ifodalaydi. Tashqi savdo - tovarlar va xizmatlar eksporti va importi kabi ko'rsatkichlardan iborat bo'lgan mamlakatlar o'rtafigi savdo shakli bo'lib hisoblanadi. Tashqi savdoning muvaffaqiyati tashqi savdo salohiyati ko'rsatkichini ifodalaydi.

Hozirgi globallashgan dunyoda tashqi iqtisodiy faoliyat xalqaro munosabatlarning muhim jihatni bo'lib, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda asosiy rol o'yinaydi. Tashqi savdo davlatlar o'rtafigi o'zaro savdo aloqalarini amalga oshirish jarayonidir. U tovarlar va xizmatlarning eksporti hamda importini o'z ichiga oladi. Mamlakat tashqi savdo aylanmasi eksport va import hajmlarining yig'indisidan tashkil topadi. Xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirish barcha ishtirokchi mamlakatlar uchun foydali bo'lishi mumkin, chunki bu iqtisodiy o'sish va farovonlikka olib keladi.

Mintaqada tashqi savdo xalqaro savdo shaklida bevosita namoyon bo'ladi. Xalqaro savdo - dunyoning barcha mamlakatlari tashqi savdosidan iborat bo'lgan xalqaro tovar-pul munosabatlari tizimi bo'lib hisoblanadi. Xalqaro savdo XVI-XVIII-asrlarda jahon bozorining paydo bo'lishi davrida vujudga kelib, uning rivojlanishi esa yangi davrda jahon iqtisodiyoti rivojlanishi omili sifatida to'liq shaklda namoyon bo'ladi. Ko'pgina tadqiqotlarda tashqi savdo mavjudligi quyidagi asosiy sabablar bilan aniqlanadi:

- tabiiy tovarlarning teng taqsimlanmaganligi;
- ishlab chiqarishda mutlaq ustunlikning mavjudligi;
- ishlab chiqarishda qiyosiy ustunlikning mavjudligi.

Eng asosiy sabab bo'lib, resurslarning xalqlar va mamlakatlar o'rtafiga taqsimlanishi hisoblanadi. Bir-biri bilan savdo qilish asosiy yo'nalish bo'lib qaraladi. Bu holatda mahsulot yoki resursning keng tarqalganligi tufayli tovarlar bilan savdo qilish amalga oshiriladi.

Mintaqada tashqi savdo davlatlararo iqtisodiy munosabatlarning eng oddiy va eng qadimgi shaklidir. Sharq va g'arb mamlakatlarini bog'lovchi ipak yo'li insoniyat tarixida birinchi marta qit'alalararo savdoni yo'nga qo'ydi. Bu yo'l qadimiy o'lkkalar hududida joylashgan shaharlar o'rtafiga savdo-sotiqning keng tarqalishiga olib keldi. Tashqi savdo salohiyati savdo aloqalari ning joriy darajasi va iqtisodiy tizim doirasidagi eng kam cheklovlarini hisobga olgan holda tashqi savdo hajmi, ya'ni ochiq chegaralarni hisobga olgan holda mamlakat erisha oladigan maksimal savdo hajmi sifatida belgilanishi mumkin [6]. Bu ishlab chiqarish, transport va sanoat texnologiyalarining mavjud darajasini hisobga olgan holda savdo to'siqlarining yo'qligi bilan tavsiflanadi. Tashqi savdoning tarkibi tashqi iqtisodiy faoliyatning mazmunini aks

ettiradi. Tashqi iqtisodiy faoliyat davlat, korxona va firmalarning tashqi savdo, tovar eksporti va importi, chet el kreditlari va investitsiyalari, boshqa davlatlar bilan qo'shma loyihalarni amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyati sohalaridan biridir [7].


Boshqa tadqiqotlarda esa mintaqqa tashqi savdoni diversifikatsiyalash masalasi o'r ganilgan. Mamlakat tashqi savdosining qit'alar bo'yicha diversifikatsiyalashning asosiy ustuvor yo'nali shlari ekanligi ta'kidlanadi [8]. Agar tashqi savdoning qit'alar bo'yicha diversifikatsiyalashga erishilsa, kelib chiqishi mumkin bo'lgan iqtisodiy muammolarning oldini olishga yetarli shart-sharoit yaratilgan bo'ladi. Faqat buning uchun qit'alar darajasida emas, ya'ni qit'alardagi mamlakatlar bo'yicha diversifikatsiya qilish talab etiladi. Shulardan kelib chiqib, tashqi savdo aylanmasi diversifikatsiyasi - eksport va importning tovar nomenklaturasini va hamkor davlatlar sonining kengaytirilishidir [9].

Mintaqada tashqi savdo bilan bog'liq jarayonlarning takomillashuvi tashqi savdo salohiyatini aks ettiradi. Tashqi savdo salohiyati savdoning joriy darajasi va iqtisodiy tizim doirasidagi eng kam cheklov larni hisobga olgan holda tashqi savdo hajmi, ya'ni ochiq chegaralarni hisobga olgan holda mamlakatda erisha oliladigan maksimal savdo hajmi sifatida belgilanadi. Tashqi iqtisodiy salohiyati 90-yillar boshlarida iqtisodchilar tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan bo'lib, ular bunda "hududlarning eksport salohiyati" tushunchasini o'rganganlar, ya'ni unga muvofiq, tashqi iqtisodiy faoliyat orqali o'z salohiyatini kengaytirish imkoniyati paydo bo'ldi [10].

Mintaqada tashqi savdo salohiyatining iqtisodiy kategoriya ekanligi olib borilgan tadqiqotlarda o'z aksini topadi. Xususan, ayrim tadqiqotlarda ba'zi mamlakatlarda tashqi savdo salohiyati tahlil qilingan, tashqi savdo faoliyatining xususiyatlari va uning tuzilishi aks ettirilgan hamda tashqi savdo salohiyatining asosiy muammosi eksportning xomashyoga yo'naltirilganligi ekanligi aniqlangan [11].

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Mintaqada tashqi savdo turli mamlakatlar tovarlarini ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida to'lanadigan tovarlar almashinuvi sifatida aniqlanadi. Tashqi savdoning ichki savdodan tub farqi shundan iboratki, tovarlarni eksport qilishda ular eksport qilinadigan davlatning bojxona hududidan chiqib ketadi, eksport va import mamlakatlari bojxona chegaralarini kesib o'tadi va import qilinadigan davlatning bojxona hududida qoladi. Bir qancha davlatlarning davlatlararo bojxona chegaralari mavjud bo'lмаган yirik yagona bojxona hududlarining paydo bo'lishi "tashqi savdo" atamasini yanada aniqroq ta'riflashni taqozo etadi. Bunday holatda tashqi savdo turli davlatlar rezidentlari o'rtasida pullik shakldagi tovarlar va xizmatlar almashinuvi bilan to'liq ravishda ifodalananadi.

Shundan kelib chiqib, mintaqada tashqi savdoning tarkibi va tuzilmasi quyidagi yo'nali shlardan iborat bo'ladi (1-rasm).



### 1-rasm. Tashqi savdo tarkibi va tuzilmasi<sup>1</sup>

1-rasmda ko'rsatilganidek, tashqi savdoning tarkibi va tuzilmasi asosan ikki omil bilan belgilanadi: tovarlar tarkibi va geografik tuzilmasi. Bundan tashqari, uning tarkibiy qismlari savdo aylanmasi, xarajatlar hajmi va jismoniy hajmni o'z ichiga oladi. Tashqi savdo salohiyatini oshirish masalasida esa uning miqdoriy va sifatiy xususiyatlari muhim rol o'ynaydi.

Mintaqaning jahon savdosida faol ishtirok etishini ta'minlovchi asosiy harakatlantiruvchi kuchlar quyidagilardan iborat:

- Mintaqada mavjud resurslardan oqilona va samarali foydalanish. Bu orqali mahalliy ishlab chiqarish imkoniyatlarini to'liq ishga solish va raqobatbardoshlikni oshirish mumkin.
- Ilmiy-texnik taraqqiyotning yangi bosqichiga yaqinlashish. Bu jarayon xalqaro mehnat taqsimotining yangi turlarini shakllantirib, uni yanada chuqurlashtiradi.
- Qisqa muddatda milliy iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish. Bu o'z ichiga tarmoqlar tuzilmasini o'zgartirish, ishlab chiqarishni boshqarish tamoyillarini takomillashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning qaror qabul qilish tizimlarini yangilash kabi jarayonlarni qamrab oladi.
- Hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning yomonlashuvi, davlat investitsiya faolligining keskin qisqarishi, xo'jalik yurituvchi subyektlar manfaatlarining qarama-qarshiligi


<sup>1</sup> Manba: Muallif ishlanmasi

kabi muammolar tufayli yuzaga kelgan ishlab chiqarish va investitsiyalar hajmining pasayishini bartaraf etish choralari.

- Xo'jalik yurituvchi subyektlarning yangi sharoitlarga, shuningdek savdo-iqtisodiy munosabatlarning zamonaviy shakl va usullariga moslashishini ta'minlash.
- Jamiyat ehtiyojlarini yanada to'liqroq, xilma-xil, sifatliroq va ishonchli tarzda qondirish imkoniyatlarini yaratish.
- Asosiy tovarlar oqimlari, xalqaro xizmatlar almashinushi, shuningdek texnologiyalar, jahon tovar va moliya bozorlari holati hamda istiqbollarini aniq va deterministik baholash mexanizmlarini joriy etish.

Bu omillarning barchasi birgalikda mintaqaning xalqaro savdoda raqobatbardoshligini oshirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shulardan kelib chiqib, mintaqada tashqi savdo salohiyati o'z tarkibiga ega bo'lib, quyidagi keltirilgan unsurlardan iborat bo'ladi (2-rasm).



**2-rasm. Tashqi savdo salohiyatining asosiy unsurlari<sup>1</sup>**

2-rasmga ko'ra, hududning tashqi savdo salohiyati tashqi savdoning yuqori darajaga erishishining asosiy omili hisoblanadi. Bu davlat tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bilan bevosita bog'liq. Xususan, xarajatlarni kamaytirish, xavf-xatarlarni oldini olish va buyurtmalarni o'z vaqtida bajarish uchun tashqi savdoni barqarorlashtirish bo'yicha noan'anaviy usullardan foydalanish davom ettirilmoqda. Tashqi savdo kompaniyalari uchun yangi bozorlarning ochilishi ham muhim ahamiyatga ega. Tashqi savdo salohiyati tashqi savdo hajmi sifatida belgilanadi. Bunda savdo determinantlarining joriy holati va iqtisodiy tizim doirasidagi minimal cheklovlar, ya'ni mamlakatning maksimal savdo hajmi hisobga olinadi. Bu chegaralarning ochiqligi, ishlab chiqarish, transport va sanoat texnologiyalarining mavjud darajasida savdo to'siqlari yo'qligini inobatga olgan holda erishish mumkin bo'lgan ko'rsatkichdir.

Mintaqaning tashqi savdo salohiyati tovarlar va xizmatlarning tashqi savdosi salohiyatini o'z ichiga olgan yig'ma ko'rsatkichdir. O'z navbatida, tovarlar va xizmatlarning tashqi savdosi salohiyati eksport va importdan tashkil topadi. Tashqi savdo salohiyatini aniqlashda tovar savdosining joriy darajasi va iqtisodiy tizim doirasidagi eng kam cheklovlarini hisobga olgan holda tashqi savdo hajmi e'tiborga olinadi.

<sup>1</sup> Manba: Muallif ishlanmasi.

Xizmatlar tashqi savdosining salohiyati - xizmatlar savdosi determinantlarining joriy darajasi va iqtisodiy tizim doirasidagi minimal cheklovlarni hisobga olgan holda xizmatlarning tashqi savdosi hajmidir.

Eksport salohiyati - mamlakat foydalanadigan ishlab chiqarish va sotish imkoniyatlari, ma'lum mahsulotga import qiluvchi mamlakatlarning talabi va ikki tomonlama munosabatlarni hisobga olgan holda eksportning maksimal mumkin bo'lgan hajmidir.

Import salohiyati - ishlab chiqarish va sotish quvvatlari, import qiluvchi mamlakatning boshqa hamkorlaridan tovarlar yoki xizmatlarga bo'lgan talabi, shuningdek ikki tomonlama munosabatlarni inobatga olgan holda mamlakat uchun importning mumkin bo'lgan maksimal hajmidir.

Tashqi savdo salohiyati ichki va tashqi imkoniyatlarni qamrab oladi. Ichki salohiyat mamlakatdagi mavjud sharoitlar ta'sirida shakllangan potensial sifatida qaraladi. Tashqi salohiyat esa tashqi ta'sirlardan kelib chiqadigan imkoniyatlarni o'z ichiga oladi. Bular jumlasiga integratsiya jarayonlari, tarifli savdo cheklovleri, mamlakatning xalqaro tashkilotlardi ishtiroki, mamlakat nufuzi va boshqalar kiradi.

Mintaqada tashqi savdo salohiyatining asosiy afzalliklari quyidagi yo'nalishlar bilan belgilanadi:

- Milliy iqtisodiyotlarda takror ishlab chiqarish jarayoni va ixtisoslashuvning kuchayishi;
- Ommaviy ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilishi;
- Asbob-uskunalardan foydalanish darajasi va yangi texnologiyalarni joriy etish samaradorligining oshishi.

Mintaqada eksport ta'minotining ko'payishi bandlikning oshishiga olib keladi. Bu esa xalqaro raqobat tufayli korxonalarni takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Eksport tushumlari sanoatni rivojlantirishga yo'naltirilgan kapital jamg'arish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, davlat eksport salohiyatini shakllantirish va amalga oshirishning nazariy asoslari xalqaro savdoning bir-birini to'ldiruvchi nazariyalari bilan ta'minlanadi. Ular rasmiy tavsiflash usullari va hal qilinayotgan vazifalarning tabiatini bilan farqlanadi. Mintaqa uchun tashqi savdo faoliyatining ahamiyati va zamonaviy iqtisodiy faoliyatning xususiyatlarini hisobga olgan holda, davlat tomonidan eksport salohiyatini shakllantirish va amalga oshirishning nazariy asoslarini yanada chuqurroq o'rganish zarur. Bu davlat eksport salohiyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi iqtisodiy jarayonlar bilan belgilanadi.

Amalga oshirilgan tahlil va tadqiqotlar natijasiga ko'ra, mintaqa iqtisodiyotida tashqi savdo salohiyatining tutgan o'rnnini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- Eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillarni yaratishga e'tibor qaratish natijasida mintaqa iqtisodiyotining eksport salohiyatini yuksaltirish va shu orqali tashqi savdo tarkibida ijobiy siljishlarga erishish. Bu chora orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarining xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayadi va ularning raqobatbardoshligi oshadi.

- Tashqi savdo subyektlari eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha mexanizmlarini ishlab chiqish. Bu mexanizmlar eksport qiluvchi korxonalarga moliyaviy, huquqiy va tashkiliy yordam ko'rsatishni, shuningdek, ular uchun ma'lumot-maslahat

xizmatlarini taqdim etishni o'z ichiga olishi mumkin.

– Tashqi savdo subyektlarining xalqaro va mahalliy ko'rgazmalarda faol ishtirok etishini ta'minlash. Bu orqali mahalliy korxonalar o'z mahsulotlarini keng miqyosda targ'ib qilish, potensial xaridorlar va hamkorlar bilan aloqalar o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

– Tashqi savdo subyektlari xodimlarini faol marketing siyosatini yuritishda zamonaviy marketing tadqiqotlari usullarini egallahshlarini ta'minlash. Bu chora-tadbir orqali korxonalar xorijiy bozorlarni chuqur o'rganish, iste'molchilar ehtiyojlarini aniqlash va o'z mahsulotlarini maqsadli bozorlarga moslashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

– Sotish uchun ishlab chiqilgan mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish. Bu chora-tadbir mahalliy mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash va ularning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan.

– Ishlab chiqarishda mahalliy xom ashylardan kengroq foydalanish hamda ishlab chiqarish jarayoniga innovatsion texnologiya va texnikalarni jalb etish. Bu esa mahsulot tannarxini kamaytirish va sifatini oshirish orqali eksport salohiyatini yuksaltirishga yordam beradi.

### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Mamadjanova T.A. O'zbekistonda tashqi savdo va uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2018 yil. – 1-6 b.
2. Mirzayev M.M. Jahon bozoriga faol chiqish: tashqi savdoni tartibga solishning zamonaviy usullari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali. №4, iyul-avgust, 2017 yil. – 1-9 b.
3. Толочко О.Н. Правовое регулирование внешнеэкономической деятельности. Учебное пособие. - Минск: Издательство Амалфея, 2012. – 232 с.
4. <https://www.finam.ru/publications/item/vneshnetorgovaya-politika-20230628-2027/>
5. <https://journal.sovcombank.ru/umnii-potrebitel/goni-rubl-rodstvennik-pochemu-tak-vazhno-v-kakoi-valyute-vedut-rascheti-vo-vneshnei-torgovle>
6. Швед А.В. Категории внешней торговли: дефиниции и подходы к статистической оценке. // Voprosy statistiki, 2018, Vol.25, No.8. - с. 45.
7. Бутенко Д.И. Внешнеэкономический потенциал региона: понятие, структура и методы оценки. // Форум молодых ученых, 5/1(21), 2018. - с. 612.
8. Sodikov Z.R. Tashqi savdoning rivojlanish tendensiyasi va uning muammolari. // Iqtisod va moliya / Экономика и финансы, 2019, 12(132). - 49 b.
9. Tursunov R.T. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlar eksport salohiyati va uni oshirish yo'llari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali, №4, iyul-avgust, 2016 yil. – 2 b.
10. Nemirova G.I., Krasilnikova E.L. Theoretical approaches to determining the foreign economic potential of the region. // Bulletin of the OSU, 2012, No.9 (145). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/teoreticheskie-podhody-k-opredeleniyu-vneshneekonomiceskogo-potentsiala-regiona> (date of access: 05/11/2022)
11. Аксенов И.А. Внешнеторговый потенциал Российской Федерации. // Таможенное дело, Учредители: ООО Издательская группа Юрист, ISSN: 2071-1220, 2019, №4. - с. 13-16.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**Nº 8 (4) – 2024**

### **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
маъсулити чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).